



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo‘linmalari, vazirlik tizimidagi respublika tashkilotlari va muassasalari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini yangi tahririni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” O‘RQ-901-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PF-53-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son Qaroriga muvofiq Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi xodimlarini asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini yangi tahririni tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari 2-ilovaga muvofiq;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari 3-ilovaga muvofiq;

vazirlik tizimidagi respublika tashkilotlari va muassasalar hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlarining malaka tavsiflari (keyingi o‘rinlarda malaka tavsiflari) 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari hamda vazirlik tizimidagi respublika tashkilotlari va muassasalari rahbarlari;

tegishli xodimlar uchun malaka tavsiflaridan foydalanish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha seminarlar tashkil etsin va tushuntirish ishlari olib borsin;

xodimlarni ishga qabul qilish va ularni boshqa lavozimga o‘tkazishda mazkur malaka tavsiflariga qat’iy rioya etilsin.

3. Devonxona (H.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassaalarga yetkazilishini ta'minlasin.

4. Axborot xizmati (D.Sobirova) tasdiqlangan malaka tavsiflarini vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining ayrim buyruqlar 5-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2024-yil "1"-aprel,  
105-son

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI (MAKTAB-INTERNAT)  
RAHBAR VA XODIMLARINING MALAKA TAVSIFLARI**

Talablar nomi	Lavozim nomi va unga qo'yiladigan malaka tavsiflari
<b>Direktor lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va menejerlik sertifikati <i>(ilmiy darajaga ega bo'lgan nomzodlarga afzallik beriladi)</i>
<b>Mehnat staji</b>	Ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilish; davlat tilini bilish <i>(rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish ustuvorlik beradi)</i> .
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi <i>(magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi)</i>
<b>Mutaxassislik</b>	Pedagogika yo'nalishi
<b>Mehnat staji</b>	Kamida 5 yildan kam bo'lmagan pedagogik staj.
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi <i>(Word, Excel, Power Point va h.k)</i> , zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish <i>(rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi)</i> ; Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi <i>(magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi)</i>
<b>Mutaxassislik</b>	Pedagogika yo'nalishi
<b>Mehnat staji</b>	Kamida 5 yildan kam bo'lmagan pedagogik staj.

<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) direktorining Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo'yicha o'rinbosari - Harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbari lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi ( <i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i> )
<b>Mutaxassislik</b>	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari va fani o'qituvchisi lavozimiga 60 yoshdan oshmagan oliy ta'lim muassasalarining harbiy ta'lim fakultetlarini tamomlagan va zaxiradagi (rezervdagi) ofitser unvoniga ega bo'lgan pedagoglar, shuningdek, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilgan tajribali ofitserlar va oliy ma'lumotga ega bo'lgan serjantlar tayinlanadi, harbiy xizmatchi nomiga dog' tushiruvchi xatti-harakatlar sodir etganligi natijasida harbiy xizmatdan bo'shatilganlar bundan mustasno. ( <i>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi 591-son qarori</i> )
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi.
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi.
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida", "Ta'lim to'g'risida" "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi va "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunlaridan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari va fani o'qituvchisi tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi tavsiyasiga ko'ra ta'lim muassasasi direktori tomonidan ishga qabul qilinadi va ishdan bo'shatiladi, Qurolli Kuchlar tarkibiga kiradigan vazirlik va idoralar tizimidagi ta'lim muassasalari bundan mustasno. Ishga qabul qilinayotgan nomzodning ma'lumoti, harbiy, jismoniy va pedagogik tayyorgarligining saviyasi, shuningdek, tashkilotchilik qobiliyati hamda uslubiy ko'nikmalari puxta shakllanganligi hisobga olinadi. Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy

	hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablari (maktab-internati) <u>o'qituvchisi</u> lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi ( <i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i> )
<b>Mutaxassislik</b>	<p>a) boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun - boshlang'ich ta'lim ixtisosligi bo'yicha kamida o'rta maxsus pedagogik ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va boshlang'ich ta'lim ixtisosligi bo'yicha dars berish huquqi bilan kasbiy qayta tayyorlov kursini tugatganligi;</p> <p>b) fan o'qituvchisi uchun - fan yo'nalishiga to'g'ri keluvchi kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot yoki kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va fan yo'nalishiga to'g'ri keluvchi dars berish huquqi bilan kasbiy qayta tayyorlov kursini tugatganligi yoxud fan yo'nalishiga (xususiyatiga) to'g'ri keluvchi kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va pedagogik faoliyat yuritish huquqi bilan qayta tayyorlov kursini tugatganligi;</p> <p>v) ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktablar hamda maktab-internatlarning ixtisoslashtirilgan fan o'qituvchisi uchun – kamida birinchi malaka toifasiga ega bo'lishi; Mutaxassislik (<i>oliy pedagogik ma'lumotga egalik afzallik beradi</i>)</p>
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	<p>O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi;</p> <p>Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>);</p> <p>Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.</p> <p>(2023/2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalariga ishga kirayotgan xorijiy tillar yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar til bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo'lishi shart)</p>
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablari (maktab-internati) <u>Stajor-o'qituvchi</u> lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Oliy va tugallanmagan to'liqsiz oliy pedagog yo'nalish ( <i>3 va undan yuqori kursda o'qiydigan talabalar</i> )

<b>Mutaxassislik</b>	Pedagogika yo‘nalishi
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog‘ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo‘yicha yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lishi
<b>Qo‘shimcha talablar</b>	O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunlardan to‘liq xabardor bo‘lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); Soha bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo‘lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi. ( <i>2023/2024-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga ishga kirayotgan xorijiy tillar yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar til bilish darajasini belgilovchi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatlariga ega bo‘lishi shart</i> )
<b>Kasbiy ta’lim ustasining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma’lumot</b>	Oliy bakalavr, o‘rta maxsus, “Ishga marhamat” Monomarkazi sertifikatiga, hunarmand uyushmasi a‘zolik guvohnomasi, axborot texnologiyalariga oid kasblar bo‘yicha IT sertifikatga ega bo‘lishi lozim
<b>Mutaxassislik</b>	Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotida o‘qitilish belgilangan kasblar bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassis
<b>Mehnat staji</b>	Mazkur kasb bo‘yicha kamida 1 yillik mehnat staji.
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog‘ida mustaqil foydalanuvchi sifatida yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lishi.
<b>Qo‘shimcha talablar</b>	Kasbiy malaka talablar (bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya)ga egalik; Davlat tili hamda maktabda o‘qitiladigan ta’lim tilini bilish; Pedagoglarga xos muomala madaniyati va odob-axloqqa ega bo‘lishi; Kasbi bo‘yicha zamonaviy yangiliklardan habardorlik; O‘rgatadigan kasbi bo‘yicha mustaqil maxsulot yarata oladigan kompetensiyaga egalik; Texnika xavfsizlik qoidalaridan to‘liq habardorlik; Internetdan foydalangan holda kasb bo‘yicha yangiliklarni topish, tahlil qilish, o‘quvchilarga yetkazib berish ko‘nikmasiga egalik; Jamoada ishlash ko‘nikmasiga egalik; Hissiyotlarni boshqara olish.
<b>Umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) direktorining Xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma’lumot</b>	Kamida o‘rta maxsus ma’lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo‘lishi lozim
<b>Mutaxassislik</b>	Mutaxassislik talab etilmaydi ( <i>oliy moliya-iqtisod va qurulish sohasidagi ma’lumotga egalik afzallik beradi</i> )

<b>Mehnat staji</b>	Kamida 3 yil shundan <i>moliya-iqtisod va qurulish sohasidagi ish staji ustunlik beradi</i> )
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	<p>O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi;</p> <p>Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>);</p> <p>Moddiy-texnika bazasini rivojlantirish ishlarini tashkillashtirish, bino va qo'shimcha ob'ektlarning texnik holati va jihozlanganligini muntazam ravishda o'rganib borish;</p> <p>kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik jarayonida tegishliligicha ko'mir, suyuq yoqilg'i, tabiiy gaz va elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash va ma'lumotlarni hududiy ta'lim boshqaruvi organlariga taqdim etish hamda qabul qilingan yoqilg'ilarning sifati va saqlanishini ta'minlash;</p> <p>kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini bilish;</p> <p>"Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) binosining texnik holatini, uning hududi, xonalar soni va o'lchamlarini, ta'lim muassasasi binosiga qo'yiladigan texnik talablarni;</p> <p>Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.</p>
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) psixologi lavozimining malakaviy tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	kamida bakalavr darajasidagi psixologik yoki oliy ma'lumot va unga qo'shimcha psixologiya yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlov kursini tugatganlik; ( <i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i> )
<b>Mutaxassislik</b>	Pedagogika-psixologiya yo'nalishi
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	<p>O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi;</p> <p>Davlat tilini bilish (<i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i>);</p> <p>Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.</p>
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) o'qituvchi-logoped lavozimining malaka tavsiflari</b>	

<b>Ma'lumot</b>	Oliy, bakalavr diplomiga ega bo'lishi ( <i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i> )
<b>Mutaxassislik</b>	Kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumotli defektolog (logoped) yoki oliy ma'lumot va unga qo'shimcha defektologiya (logopediya) yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlov kursini tugatganligi;
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi.
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); a) amaldagi umumiy o'rta ta'lim sohasidagi, bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni; b) maxsus va yoshlar pedagogikasi hamda psixologiyasini; v) defektologiyaning anatomik-fiziologik va klinik asoslarini; g) o'quvchilarning rivojlanishidagi muammolarini oldini olish va tuzatishning metodlari hamda usullarini, ular bilan ishlashda qo'llaniladigan dasturiy-metodik adabiyotlarni; d) nutqida nuqsoni bor bolalarni aniqlash, hisobga olish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ochilga logopediya shoxobchalari bilan hamkorlikda ishlash choralarini ko'ra bilish qobiliyatga ega bo'lishi lozim. Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) Kutubxona mudiri, Kutubxonachi lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Kamida o'rta maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi
<b>Mutaxassislik</b>	Mutaxassislik talab etilmaydi
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) To'garak rahbari</b>	



<b>lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Kamida o'рта maxsus ma'lumot yoki tegishli pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan, ammo kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy sifatlarga hamda "Usta", texnik va sayyohlik sohasi bo'yicha "Sport ustasi" yoki "Sport ustaligiga nomzod" maqomiga ega bo'lishi lozim.
<b>Mutaxassislik</b>	To'garak yo'nalishiga mos keluvchi mutaxassislik
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'рта ta'lim maktabi (maktab-internat) Laboranti lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Kamida o'рта maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi
<b>Mutaxassislik</b>	Mutaxassislik talab etilmaydi
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'рта ta'lim maktabi (maktab-internat) Tarjimon-kotiba lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Kamida o'рта maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi ( <i>magistratura, ilmiy darajaga egalik afzallik beradi</i> )
<b>Mutaxassislik</b>	Mutaxassislik talab etilmaydi
<b>Mehnat staji</b>	Mehnat staji talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya

<b>talablar</b>	to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomo to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.
<b>Umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) Kadrlar bo'yicha inspektor lavozimining malaka tavsiflari</b>	
<b>Ma'lumot</b>	Kamida o'rta maxsus ma'lumot yoki oliy bakalavr diplomiga ega bo'lishi
<b>Mutaxassislik</b>	Pedagog yoki huquq yo'nalishlari ustunlik beradi
<b>Mehnat staji</b>	Talab etilmaydi
<b>Kompyuter savodxonligi</b>	Microsoft Office dasturi ( <i>Word, Excel, Power Point va h.k.</i> ), zamonaviy axborot texnologiyalarida va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi
<b>Qo'shimcha talablar</b>	O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunlardan to'liq xabardor bo'lishi; Davlat tilini bilish ( <i>rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish afzallik hisoblanadi</i> ); a) davlatimizning xalq ta'limiga va mehnat munosabatlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarini; b) kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish usullari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini, jamoada qulay psixologik muhit yaratishni; v) pedagoglarning shaxsiy tarkibi bo'yicha buyruqlarini tayyorlash va ularning belgilangan tartibda saqlanishini; g) faoliyat yo'nalishi bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari, ta'limni boshqaruv organlari, jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish usullarini; Soha bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlardan xabardor bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirganligi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2024-yil 1- apreldagi  
105-sonli buyrug‘iga  
5-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
o‘z kuchini yo‘qotgan ayrim buyruqlari  
RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘linmalari, vazirlik tizimidagi respublika tashkilotlari va muassasalari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab-internat) xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2023-yil 16-avgustdagi 247-sonli buyrug‘i.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 16-avgustdagi 247-son buyrug‘iga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 20-sentabrdagi 335-sonli buyrug‘i.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari Direktorlar kengashi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 30-dekabrdagi 74-xdfu-son buyrug‘ining 2-ilovasi.